



## O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI NOSTALGIK LEKSIKALARNING TARJIMA MUAMMOLARI

Xayitova Rushana Ximoyiddin qizi,

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o‘qituvchisi

[rushanaxayitova310@gmail.com](mailto:rushanaxayitova310@gmail.com)

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15243792>

**Annotatsiya:** Maqolada o‘zbek va ingliz tillaridagi nostalgik leksik birliklarning tarjima jarayonidagi lingvistik va madaniy muammolari tahlil qilinadi. Nostalgik leksika milliy o‘ziga xoslik va tarixiy xotira bilan bog‘liq bo‘lib, uni tarjima qilishda ekvivalentlik, adaptatsiya va interpretatsiya usullari qo‘llaniladi. Tadqiqotda metaforik iboralar, arxaik va tarixiy leksika hamda dialektal birliklarning tarjima jarayonidagi o‘rni, shuningdek, semantik va stilistik qiyinchiliklar yoritiladi.

**Kalit so‘zlar:** nostalgik leksika, tarjima muammolari, madaniy konnotatsiya, arxaik leksika, stilistik moslik, pragmatik adaptatsiya.

Zamonaviy lingvistika kontekstida tarjima jarayoni nafaqat til birliklarining ekvivalentlarini topish, balki ularning madaniy, semantik va pragmatik jihatlarini hisobga olishni ham talab qiladi. Ayniqsa, nostalgik terminlarning tarjimasi murakkab jarayon bo‘lib, bu birliklarning tarixiy-madaniy mazmunini saqlab qolish muhim ahamiyatga ega. Nostalgik leksika har bir jamiyatning tarixiy xotirasi, milliy o‘ziga xosligi va ijtimoiy-estetik qadriyatlarini bilan bog‘liq bo‘lib, ularni boshqa til va madaniyatga moslashtirish muayyan tarjima muammolarini keltirib chiqaradi.

“Nostalgik” atamasi yunoncha “*nostalgia*” [nostalgiya] so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, u qadimgi yunonchadagi νόστος [nóstos] – “*uyga qaytish*” va ἄλγος [álgos] – “*alam, sog‘inch*” [12; 10:10] degan ma’no beruvchi so‘zlaridan tarkib topgan. Ushbu atama ilk bor 1688-yilda shveysariyalik shifokor Johannes Hofer [1669-1752] tomonidan Basel shahrida dissertatsiyasi himoyasida qo‘llanilgan bo‘lib, u uzoq yurtlarda xizmat qilayotgan askarlarning vatan sog‘inchini ifodalash uchun ishlatgan. Hofer ushbu atamani, ya’ni *nostalgia* yoki fransuzcha *mal du pays* [“*uyga sog‘inch*”] ni, shuningdek, ba’zan *mal du Suisse* [“*Shveysariya kasalligi*”] deb ham atashni tavsiya qilgan [9:260]. O‘zbek va ingliz tillari misolida nostalgik terminlarning tarjima muammolarini o‘rganish, bu sohadagi lingvistik va madaniy tafovutlarni aniqlashga imkon beradi.

Nostalgik leksikalar – muayyan tarixiy davr, milliy an’ana yoki shaxsiy xotiralar bilan bog‘liq bo‘lgan so‘z va iboralardir. Bunday birliklar nafaqat leksik-semantik ma’no yukiga ega, balki ular madaniy konnotatsiyalarni ham o‘z ichiga oladi. Masalan, ingliz tilidagi *victorian era*, *cottagecore* yoki o‘zbek tilidagi *mahalla*, *tanovul* kabi terminlar muayyan davr yoki turmush tarzini anglatadi va tarjima



jarayonida muayyan ekvivalent topish qiyinchilik tug‘diradi. Tarjimonlar bunday terminlarni tarjima qilishda ekvivalentlik, adaptatsiya va interpretatsiya usullaridan foydalanishadi. Shuningdek, nostalgik terminlar tarjimasida kontekstning to‘g‘ri anglanishi va ma‘no yo‘qotilishining oldini olish muhimdir.

Nostalgik leksikalar turli lingvistik vositalar orqali shakllanadi. Ular orasida quyidagilar ajralib turadi:

1) *Metaforik ifodalar*: Nostalgik terminlar ko‘pincha metaforik ma‘noga ega bo‘lib, ular o‘tgan davrga bo‘lgan sog‘inchni obrazli ifodalashga xizmat qiladi. Masalan, ingliz tilida “golden days”, “bygone era”, “simpler times” kabi iboralar o‘tgan kunlarga xos nostalgiya tuyg‘usini beradi. O‘zbek tilida esa “bobolar zamoni”, “oltin bolalik”, “eski mahalla ruhi” kabi iboralar ushbu semantikani aks ettiradi. Bunga misol sifatida Pirimqul Qodirovning Avlodlar dovoni asaridagi quyidagi satrni keltirish mumkin:

*“Bolaligimda... tushimda ko‘rganmanmi yoki qoni[m]da bor[mi]... bobolar yurtini qo‘msab yashamoqdaman”.*

Bu ifoda insonning ajdodlar yurti bilan bog‘liq chuqur ichki tuyg‘ularini, o‘tgan davrga bo‘lgan sog‘inchni aks ettiradi. Ayniqsa, “tushimda ko‘rganmanmi yoki qoni[m]da bormi” degan ibora nostalgiya nafaqat esdaliklar, balki avlodlar orqali o‘tuvchi ruhiy bog‘liqlik ekanligini ko‘rsatadi. Shu bois, bunday metaforik birliklarni tarjima qilishda ularning semantik yukini va madaniy konnotatsiyasini to‘g‘ri uzatish muhim ahamiyatga ega.

Ingliz tilida Mark Tvenning “The Adventures of Tom Sawyer” asaridan quyidagi misol nostalgik metaforik ifodaga misol bo‘la oladi:

*“They gradually wandered apart, dropped into the ‘dumps,’ and fell to gazing longingly across the wide river to where **the village lay drowsing in the sun.**”*

Bu ifodada “the village lay drowsing in the sun” metaforik tasvir bo‘lib, o‘tgan baxtli kunlarning osoyishta va iliq manzarasini ifodalaydi. Ushbu tasvir “golden days” yoki “simpler times” kabi iboralarga o‘xshab, bolalarning yo‘qotilgan osoyishta dunyosi va uyga bo‘lgan sog‘inchni aks ettiradi.

2) *Arxaik va tarixiy leksika*: Nostalgik kontekstda ishlatiladigan ko‘plab so‘zlar bugungi kunda kam ishlatiladigan yoki tarixiy bo‘lib qolgan birliklardan iborat. Masalan, ingliz tilida “gramophone”, “horse-drawn carriage”, “telegraph” kabi so‘zlar tarixiy nostalgiya yaratadi. O‘zbek tilida esa “piltachiroq”, “arava”, “qoplon to‘qmoq” kabi so‘zlar shu guruhga kiradi.

Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” asarida ko‘plab tarixiy va arxaik leksik birliklar uchraydi. Masalan, quyidagi jumlada ishlatilgan “сармуниший” [sar-



munshiy] so‘zi bugungi kunda kam qo‘llaniladigan tarixiy atamalardan biri bo‘lib, yozuvchi uni o‘sha davrning rasmiy-boshqaruv tizimini aks ettirish uchun ishlatgan:

*“Shu yo‘sun tajriba yilidan tashqari besh sana saroyda ishlab kelar edikim, mundan o‘n besh kunlar muqaddam sarmunshiy Muhammad Rajab poygachi bir haftagina og‘rib, vafot etdi.”*

“Sar-munshiy” so‘zi o‘tmishda davlat idorasida yoki saroyda asosiy yozuvchilik va kotiblik vazifasini bajargan yuqori lavozimli shaxsni anglatgan. Bu atama hozirgi kundalik nutqda deyarli ishlatilmaydi, biroq tarixiy kontekstda o‘sha davr boshqaruv tizimini tasvirlashda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu so‘zni zamonaviy tilga oddiygina “bosh kotib” yoki “asosiy yozuvchi” deb tarjima qilish mumkin, lekin bunday holda tarixiy mazmun va o‘tmish davrga oid konnotatsiya yo‘qoladi. Shu sababli, bunday atamalarni tarjimada asliga yaqin holda izohlab berish yoki kontekst bo‘yicha moslashtirish muhimdir.

Ingliz tilida Charlotta Brontening “Jane Eyre” asarida tarixiy va arxaik leksika namunalarini ko‘plab uchratish mumkin. Quyidagi misol shunday birliklardan biridir:

*“Bessie had been down into the kitchen, and she brought up with her a tart on a certain brightly painted china plate, whose bird of paradise, nestling in a wreath of convolvuli and rosebuds, had been wont to stir in me a most enthusiastic sense of admiration...”*

Bu misolda *china plate* [xitoy chinnisi] va *bird of paradise* [jannat qushi] kabi tushunchalar o‘tgan davrning hashamatli hayot tarzini ifodalaydi. Ushbu buyumlar bugungi kunda kam uchraydigan yoki faqat tarixiy kontekstda esga olinadigan narsalar qatoriga kiradi. Shuningdek, “*had been wont to stir in me a most enthusiastic sense of admiration*” iborasi ham eski davrga xos uslubda yozilgan bo‘lib, zamonaviy ingliz tilida kam qo‘llaniladi. Ushbu ibora “*used to inspire great admiration in me*” kabi soddalashtirilgan shaklda ifodalansa ham bo‘ladi.

Bunday leksik birliklar nostalgiya tuyg‘usini uyg‘otadi, chunki ular eski zamonning ijtimoiy tuzilmasi, madaniy an‘analarini va kundalik hayotini aks ettiradi. Tarjimada bunday birliklar uchun muqobil variantlar topish yoki ularni mos ravishda izohlash muhim ahamiyatga ega.

3) *Dialektal va regional leksika*: Nostalgik his-tuyg‘ularni aks ettiruvchi ko‘plab terminlar mahalliy dialekt va shevalarda uchraydi. Masalan, o‘zbek tilining turli shevalarida bolalik yoki mahalla hayotiga oid “*sholg‘om*”, “*dumba osh*”, “*lapashang*” kabi so‘zlar eski madaniy muhitni eslatadi. Ingliz tilida esa “*yonder*”, “*reckon*”, “*folks*” kabi dialektal birliklar mahalliy va nostalgik hissiyotlar bilan bog‘lanadi. Quyidagi misol shunday birliklardan biridir:



*“Шалғам – Биби Фотимаи Зухранинг дуолари баракати, қовоқ бўлса ҳазрати Юнуснинг мўъжизалари”*. [A.Qodiriy. Mehrobdan chayon]

Bu misolda “шалғам” [sholg‘om] va “қовоқ” [qovoq] so‘zlari dialektal va regional xususiyatga ega bo‘lib, ular eski o‘zbek turmush tarzining o‘ziga xos unsurlaridan biridir. O‘zbek xalq og‘zaki nutqida *sholg‘om* va *qovoq* oddiy mahsulotlar bo‘lishiga qaramay, ularga diniy va ma‘naviy mazmun yuklanib, xalq orasida muqaddaslik ramzi sifatida qaralgan. Muallif bu sabzavotlarni diniy shaxslar va mo‘jizalar bilan bog‘lab, o‘sha davrdagi xalq qarashlarini aks ettirgan. Xalqona tafakkurda sholg‘om va qovoq faqat oziq-ovqat emas, balki mo‘jizakor va barakali mahsulot sifatida talqin qilingan. Bu esa asardagi dialektal birliklarning ahamiyatini yanada oshiradi. Bunday so‘zlarni tarjima qilishda ularning madaniy konnotatsiyasini yo‘qotmaslik muhimdir. Tarjimada ushbu iboralar soddalashtirilishi yoki izoh bilan berilishi lozim, chunki ularning bevosita ekvivalenti boshqa tillarda mavjud bo‘lmasligi mumkin.

Nostalgik leksik birliklar tarjima jarayonida semantik, pragmatik, stilistik hamda lingvomadaniy jihatdan til va madaniyatga xos xususiyatlarni aks ettirgani sababli, tarjimon uchun qator murakkabliklarni yuzaga keltiradi. Ushbu qiyinchiliklarni quyidagicha tasniflash mumkin:

1. **Semantik jihatdan yuzaga keladigan qiyinchiliklar.** Semantik jihatdan nostalgiya ifodalovchi birliklarning mazmunini to‘liq yetkazishda quyidagi muammolar mavjud:

– Leksik-semantik ekvivalentning yo‘qligi yoki cheklanganligi. Nostalgik birliklar muayyan tilga xos tarixiy-madaniy yoki shaxsiy-emotsional kechinmalarni aks ettiradi va boshqa til tizimida to‘liq ekvivalenti bo‘lmaydi [5].

– Konnotativ ma‘nolarni ifodalashdagi murakkabliklar. Nostalgik birliklarning tarkibidagi emotsional va assotsiativ qatlamni tarjimada saqlash qiyin bo‘lib, bu semantik yo‘qotishlarga olib keladi [4].

– Ko‘pqatlamli semantik strukturani qayta yaratish zarurati. Nostalgik birliklarning keng semantik-ekspressiv hajmini aks ettirish uchun so‘zma-so‘z emas, balki funksional ekvivalentlardan foydalanish talab etiladi [2].

2. **Pragmatik jihatdan yuzaga keladigan qiyinchiliklar.** Pragmatik jihatlar tarjimada birliklarning kommunikativ samarasini saqlash bilan bog‘liq bo‘lib, quyidagi murakkabliklarga sabab bo‘ladi:

– Nutqiy vaziyatga mos pragmatik ekvivalent topish muammosi. Pragmatik jihatdan mos keluvchi ekvivalentni topish har doim ham oson emas, chunki tarjima tilidagi birlik asl matndagi kabi kommunikativ ta‘sir ko‘rsatishi lozim [11].



– Hissiy-ekspressiv ta’sirni yetkazishdagi murakkabliklar. Tarjima vaqtida asl matnning pragmatik ta’sirini saqlash uchun tarjimon yuqori darajadagi pragmatik kompetentlikka ega bo‘lishi kerak [8].

3. **Stilistik jihatdan yuzaga keladigan qiyinchiliklar.** Nostalgik birliklarning stilistik jihatlari tarjima jarayonida matnning emotsional va estetik jihatini saqlash bilan bog‘liq bo‘lib, quyidagi qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi:

– Stilistik bo‘yoqlarni qayta yaratishdagi murakkabliklar. Nostalgik birliklarning o‘ziga xos ekspressivligi va stilistik o‘ziga xosligini tarjima tilida aks ettirish murakkab vazifadir [1].

– Matnning stilistik yaxlitligini saqlash zarurati. Nostalgik birliklarni boshqa tilning stilistik me’yorlariga moslashtirish tarjimondan yuqori stilistik moslashuvchanlikni talab qiladi [7].

4. **Lingvomadaniy jihatdan yuzaga keladigan qiyinchiliklar.** Lingvomadaniy jihatdan nostalgik birliklar ma’lum bir madaniyatga xos qadriyatlarni aks ettirishi bilan bog‘liq bo‘lib, quyidagi muammolarga olib keladi:

– Madaniyatlararo ekvivalentlikning mavjud emasligi yoki cheklanganligi. Nostalgik birliklar madaniyatga bog‘liq bo‘lgani uchun boshqa madaniyatlarda aynan bir xil emotsional va semantik ta’sir ko‘rsatuvchi birliklarni topish murakkab [3].

– Madaniy realiyalarni tarjima qilishdagi murakkabliklar. Tarjimada nostalgiya bilan bog‘liq madaniy realiyalarni tushunarli qilish uchun tavsifiy yoki izohli tarjimadan foydalanish zarur bo‘ladi, bu esa matnning ixchamligi va badiiyligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin [6].

Yuqoridagi semantik, pragmatik, stilistik va lingvomadaniy qiyinchiliklarni samarali hal qilish uchun tarjimashunoslikda ishlab chiqilgan ekvivalentsiya nazariyalari, pragmatik adaptatsiya tamoyillari hamda madaniyatlararo kommunikatsiya konsepsiyalaridan kompleks tarzda foydalanish zarur. Bunday kompleks yondashuv tarjimondan yuqori professional tayyorgarlik va keng lingvomadaniy bilimlarni talab qiladi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, nostalgik leksik birliklarning tarjimasi nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan ham chuqur tahlilni talab etadi. Shu bois tarjimonlarning lingvistik bilimlari bilan birga, madaniyatlararo tafakkur darajasini oshirish ham muhim ahamiyatga ega.



**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Арнольд, И.В. Стилистика современного английского языка [стилистика декодирования]: учебное пособие / И.В. Арнольд. – М.: Просвещение, 1990. – 300 с.
2. Бархударов, Л.С. Язык и перевод: вопросы общей и частной теории перевода / Л.С. Бархударов. – М.: Междунар. отношения, 1975. – 240 с.
3. Верещагин, Е.М., Костомаров, В.Г. Язык и культура: Лингвострановедение в преподавании русского языка как иностранного: учебное пособие / Е.М. Верещагин, В.Г. Костомаров. – 4-е изд., перераб. и доп. – М.: Рус. яз., 1990. – 246 с.
4. Виноградов, В.С. Введение в переводоведение [общие и лексические вопросы]: учебное пособие / В.С. Виноградов. – М.: Изд-во Института общего среднего образования РАО, 2001. – 224 с.
5. Комиссаров, В.Н. Современное переводоведение: учебное пособие / В.Н. Комиссаров. – М.: ЭТС, 2002. – 424 с.
6. Лотман, Ю.М. Семиосфера / Ю.М. Лотман. – СПб.: Искусство-СПБ, 2000. – 704 с.
7. Рецкер, Я.И. Теория перевода и переводческая практика: очерки лингвистической теории перевода / Я.И. Рецкер. – М.: Международные отношения, 1974. – 216 с.
8. Katan, D. Translating Cultures: An Introduction for Translators, Interpreters and Mediators / D. Katan. – Manchester: St. Jerome Publishing, 1999. – 271 p.
9. Kenny, M. [2017]. Back to the populist future?: Understanding nostalgia in contemporary ideological discourse. *Journal of Political Ideologies*, 22[3], P.260. [p. 256–273.]
10. Natali, M. P. [2004]. History and the Politics of Nostalgia. *The Iowa Journal of Cultural Studies*, 5, P. 10. [p. 10–25.]
11. Nida, E.A. Toward a Science of Translating: With Special Reference to Principles and Procedures Involved in Bible Translating / E.A. Nida. – Leiden: E.J. Brill, 1964. – 331 p.
12. <https://www.etymonline.com/word/nostalgia>